

INTERNETDAGI FOYDALANUVCHI SHARHLARIDA INFORMATIVLIK VA UNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Ismoilova Odina A`zamjon qizi

O`zbek va rus tillari kafedrası,

«UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDOGOGY» HBY3

Annotatsiya: Ushbu maqolada internet sharhlarining informativlik xususiyati va uning lingvopragmatik tahliliga oid ayrim mulohazalar bayon etilgan. Mazkur maqola internetdagi foydalanuvchi sharhlarining informativlik xususiyatlarini lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda internet kommentariylari alohida diskurs turi sifatida qaralib, ulardagi nutqiy aktlar, xususan, assertiv aktlarning informativ vazifalari J. Ostin va J. Searle nazariyalari asosida o'rganiladi. Sharhlarda lokutiv, illokutiv va perlokutiv jihatlarning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, kommunikativ maqsad va intension masalalari yoritiladi. Tahlil natijalari internet sharhlarida informativlik faqat ma'lumot yetkazish bilan cheklanmay, muallifning yashirin yoki ochiq pragmatik niyatlarini ham ifodalashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *nutqiy akt tushunchasi, assertiv nutqiy aktlar, perlokutiv va lokutiv jihatlar, kommunikativ maqsad, intensivlik.*

INFORMATIVENESS IN USER COMMENTS ON THE INTERNET AND ITS LINGVOPRAGMATIC ANALYSIS

Ismoilova Odina A`zamjon qizi

Department of Uzbek and Russian Languages,

«UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDOGOGY» HBY3

Abstract: This article presents some considerations on the informative nature of Internet comments and their linguovpragmatic analysis. This article is devoted to the analysis of the informative nature of user comments on the Internet from a linguovpragmatic point of view. The study considers Internet

comments as a separate type of discourse, and the speech acts in them, in particular, the informative functions of assertive acts, are studied based on the theories of J. Austin and J. Searle. The interrelation of locative, illocutionary and perlocutionary aspects in comments, as well as issues of communicative purpose and intention, are highlighted. The results of the analysis show that informativeness in Internet comments is not limited to conveying information, but also expresses the author's hidden or explicit pragmatic intentions.

Keywords: *the concept of speech act, assertive speech acts, perlocutionary and locutionary aspects, communicative purpose, intensity.*

Tobora yuksalib borayotgan bugungi globallashuv asrida ilmiy tadqiqotlarning barcha sohalarida keng ko‘lamli izlanishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, zamonaviy tilshunoslik olamida ham internetdagi foydalanuvchi sharhlarini o‘rganish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Chunki raqamli muloqot platformalari keng ommalashib borayotgan “ axborot asri” da sharhlar, xususan, internet komentariylari, nafaqat, subyektiv fikr bildirish, balki kommunikativ munosabatlarni keng doirada shakllantirishning muhim vositasiga aylangan. Sharhlarning lingvistik nuqtayi nazaridan tahlili ularning nutqiy janr sifatidagi xususiyatlari, informativlik darajasi, pragmatik vazifalari va kontekstga bog‘liqligini ochib beradi. Bu jarayonni atroflicha tushunishda nutqiy aktlar nazariyasi asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

XX asrning 2-yarmida J. Ostin va J. Searle tomonidan ishlab chiqilgan ushbu ta’limotga ko‘ra, har bir nutqiy ifoda ma’lum bir illokutsion maqsadni bajaradi. J. Searle nutqiy akt (deklarativ, direktiv, ekspressiv, komissiv, assertiv) ni kommunikatsiya tizimining asosiy birligi sifatida baholab, uning funksiyaviyligiga urg‘u beradi va quyidagicha fikrni ilgari suradi: “Lisoniy muloqot birligi, odatda, taxmin qilganlaridek simvol (ramz) so‘z yoki gap emas, xatto simvol so‘z yoki gapning belgisi ham emas, balki simvol so‘z yoki gapning nutqiy akt ijrosi jarayonida yaratilishi va qo‘llanishidir”. Austin esa bu masalaga strukturaviy jihatdan yondashib, lokutiv, illokuutiv va perlokutiv kabi

turlar ko‘rinishida tasnif qilgan. Bu tasniflar nazariy jihatdan yetarlicha o‘rganilgan, ammo nazariyani matn tahliliga bog‘lab amaliy jihatidan o‘rganilishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Maqola internet komentariylarini internet diskursining alohida turi sifatida talqin etib, undagi nutqiy aktlarning informativlik xususiyatlarini Austin va Searle tasniflari asosida lingvopragmatik nuqtayi nazardan o‘rganadi. Internet sharhlari esa ko‘pincha **assertiv nutqiy aktlar** sifatida namoyon bo‘lib, foydalanuvchi tomonidan ma’lumot berish, tajriba ulashish yoki baho bildirish kabi vazifalarni bajaradi. Shu bois, informativlikni lingvopragmatik jihatdan tahlil qilish nutqiy akt nazariyasining amaliy qo‘llanilishiga yaqqol misol bo‘la oladi. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilib, kommentariylarning informativlik darajasini tahlil qiladi.

Ma’lumki Searle o‘z tadqiqoti davomida illokutiv aktlarning turlarini ko‘rsatib o‘tadi. Shulardan biri assertiv akt sanaladi. Assertiv aktlar voqelik haqida g‘oya yoki fikr-mulohaza bildirish, xabar berish, tavsiflash, taklif kiritish, inkor qilish yoki tasdiqlash kabi ma’nolarni o‘z ichiga olishi bilan ahamiyatlidir. Qisqa qilib aytganda assertiv aktlar boshqa nutqiy akt turlaridan farqli ravishda ma’lumotlarni anliz qilish orqali ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri (ishonchsiz) ekanini tekshiradi. Masalan:

1. [@borivoytorayev8121](#): Ichimizdagi og‘riqli muammoni aytibsiz siz kabi insonlar ko‘paysin.

Mazkur jumladagi informativlik pragmatik jihatidan uch bosqichda tahlil qilinadi. Ya’ni nutqiy aktlarning lokutiv, illokutiv va perlokutiv jihatlari ko‘zga tashlanadi:

Lokutiv jihat: *Ichimizdagi og‘riqli muammoni aytibsiz.* Ushbu gapda informativlik oddiy uslubda berilmoqda, ya’ni faktni bildiruvchi xabar orqali adresantga shunchaki ma’lumot yetkazilmoqda. Shu bilan bir qatorda pragmatik mazmun doirasida **illokutiv jihatlar** (adresatning maqsadi: buyruq, iltimos, duo kabilar) ham ishtirok etgan: *“Siz kabi insonlar ko‘paysin”* qismi esa

ta'kidlaganimizdek **duo/istak** illokutiv aktiga kiradi. So'zlovchi o'zining sharhi orqali post muallifiga nisbatan yaxshi tilak bildirishni maqsad qilgan. Bu xabarni o'qish davomida adresantda kayfiyatida paydo bo'lgan ko'tarinkilik, ruhiy ta'sir va rag'bat hislari nafaqat informativlikning ikki turi, balki perlokutiv jihatlari ham e'tibordan chetda qolmaganligini anglatadi.

2. [@sherhon09](#): Hech qachon ozingizni qorqitmag ALLOH beradi Dangasalik panoh berguvchi Alloh bor mativatirlarga ketgan vohtizga harakat qlsez shu maqul.(Maslahat)
3. [@ManzuraBurieva-x8k](#): Инсульт!Еки тромб кучган юрак кон томирдан. Хозир бу холат куп, ешга карамийди! Оллох рахмат килсин!. (Ogohlantirish)
4. [@Ali-c9t9](#): Икки. Уч соатли кинони [7:32](#) дакикага сигдирган хаммани уйлашга чорлайдиган булибди хамма ишни уз устаси бажарганда юрагинггача етиб боради. Ко'p hollarda internet sharhlari internet sharhlari nutqiy aktlarning assertiv guruhiga mansub bo'lib, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari orasida xabar almashinishning turli ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Lingvopragmatik tahlilda esa informativlikning nutqiy vaziyatga qay darajada bog'liqligini tushuntirib beradi, ya'ni foydalanuvchi qanday auditoriyaga, qaysi platformada va qaysi til birliklaridan foydalangan holda yozayotganini aniqlashga yordam beradi.

Informativ nutqning maqsadini batafsilroq yoritish uchun intensional tahlil yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Filologiya fanlari doktori, professori Sh.Safarovning mulohaza yuritishicha, "muloqot jarayonida ishtirokchilar o'zaro munosabatlar tengligini ta'minlash uchun kommunikativ maqsadga mos keladigan harakatlar rejasini tuzadilar va ushbu rejani amalga oshirish imkonini beradigan lisoniy vositalarni tanlaydilar. Kommunikativ maqsad ifodasi ikki yo'sinda kechishi ma'lum. Bularning biri intensionaning yashirin ifodasi bo'lsa, ikkinchisi fikrni ochiq izhor qilishdir"(Sh.Safarov, 318-

bet). Tadqiqot natijalariga asosan, har bir nutqiy harakatda kamida ikki bosqichli maqsad: *boshlang'ich intension* (gapning yuzaki maqsadi) va *natijaviy intension* (so'zlovchining asl niyati) mavjudligi xulosa qilingan. Masalan, "Mehmonxonaga qanday borsam bo'ladi?" degan jumla informativ so'roq bo'lsa-da (ya'ni muayyan javob talab qiluvchi so'roq gap), asl maqsad — vokzalga yetib borishdir.

Bu masalada yetarlicha izlanishlarva muhim natijalar bo'lishiga qaramay, intensional tahlilning internet sharhlarida qo'llanishi bilan bog'liq ayrim jihatlar hali to'liq o'rganilmagan va ochiq masala sifatida qolmoqda.

Internet komentariylarida kommunikativ maqsad ko'pincha aynan shu ikki qatlamli model orqali namoyon bo'ladi. Xalqona ibora bilan aytganda "kosa tagida nimkosa" bo'lganidek, foydalalanuvchi biror voqea-hodisa haqida ma'lumot beradi (Ofarin. Baribir professional ish boshqa Juda foydali. Alloh rozi bo'lsin. O'zimni tahlil qilishga sabab bo'ldi), aslida u orqali boshqa maqsad — e'tibor qaratish, suhbatni davom ettirish yoki shaxsiy kuzatishlarini boshqa foydalanuvchilarga ulashish kabi intensional maqsadni ham amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, internet komentariylari, nafaqat foydalanuvchi tajribasini ifodalash va ma'lumot yetkazishga qaratiladi, balki informativ mazmun ostida so'zlovchining intensioniga bog'liq maqsadlarni ham o'zida namoyon eta oladi. Ya'ni, informativ nutq maqsadi faqat "nima deyilyapti" degan savolga emas, balki "kim aytyapti, qanday vaziyatda, qachon, qanday niyat bilan" degan savollarga ham javob beradi. Tilshunos Kazberg ta'kidlaganidek, maqsadga erishish uchun lisoniy vositalardan foydalanish — bu faqat pragmatikaning emas, balki semantikaning ham vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Austin J. L. *How to Do Things with Words*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1975.
2. Searle J. R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
3. Searle J.R. A classification of illocutionary acts //Language in society – 1976. – Vol. 5 – №1. – P.1.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008.
5. https://youtube.com/watch?v=ZlZ-N1SX0EM&lc=Ugzbay0nZ2QfYN0mCKF4AaABAg&si=VsIrjr8T5Bzbu_I
6. Murojaat sanasi: 25.11.25
6. https://youtube.com/watch?v=Fzu4vkgb5N0&lc=Ugwe5hD0sjKliizSMIx4AaABAg&si=kxsey8aNQYfbt5T_. Murojaat sanasi 25.11.25
7. https://youtube.com/watch?v=8yYlecVw9oo&lc=UgyeBo_UtNpUgkigXTB4AaABAg&si=3aZWVpK1HZt2dWaw. Murojaat sanasi: 25.11.25
8. <https://youtube.com/watch?v=ZlZ-N1SX0EM&lc=UgwaZjKHK2IgHwq40n94AaABAg&si=gFrMIOZTvBy4e5xz>. Murojaat sanasi: 25.11.25